



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 54 sahifa,
noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ СТУДЕНТОВ КАК УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА.....	8
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
PEDAGOGLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA USLUBIY TAYYORGARLIGINING O'RNI	12
Toshmatov Boboxon Egamshukurovich	
BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.....	16
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КОНСУЛЬТАЦИЯ: СОВРЕМЕННАЯ ПРАКТИКА, ЗАДАЧИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	19
Раупова Шохида Ахроровна	
ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБУЧЕНИЮ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: ЗАДАЧИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	22
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
ИССЛЕДОВАНИЕ ЦЕЛОСТНОГО МЕХАНИЗМА ПСИХИЧЕСКОЙ РЕГУЛЯЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	26
Шарипова Муштари Толибжон кизи	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА: РЕЗУЛЬТАТЫ ПИЛОТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ	33
Рахманова Диляра Рустемовна	
ICHKI ISHLAR ORGANLARIGA XIZMATGA QABUL QILINGAN SHAXSLARNI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHTIRISH JARAYONINI MOHIYATI	36
Zaribov Zafarbek Ravshonbekovich	
O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDAGI IJOBIY FAZILATLAR SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-ETNOPSIXOLOGIK OMILLARNING NAZARIY ASOSLARI.....	41
Djurayev Tashpulat Saxiyevich	
IRODAVIY FAOLLIKNI TADQIQ ETISHDA JINS XUSUSIYATLARINING DETERMINANTLARI	45
Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich	
МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	50
Norimbetova Nilufar Turg'un qizi	



IRODAVIY FAOLLIKNI TADQIQ ETISHDA JINS XUSUSIYATLARINING DETERMINANTLARI



Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich

Termiz davlat universiteti
 Psixolog, katta o'qituvchi
 Manzil: O'zbekiston, 190111, Termiz shahri
 otkir_0606@mail.ru
 ORCID: 0000-0003-4602-0309
 SCOPUS ID 000000000

Annotatsiya: Ushbu maqolada irodaviy faollikning jinsiy tafovutlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot davomida irodaviy sifatlarning shaxsning individual va jinsga oid xususiyatlari bilan bog'liqligi empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, irodaviy sifatlarni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning psixologik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iroda, faollik, gender, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, matonat, mustaqillik, tirishqoqlik, g'ayratlilik, ziyraklik, sobidqadamlik.

Abstract: This article describes the empirical data of volitional activity obtained using psychodiagnostic methods of personality and gender differences. The study focuses on highlighting the personality and gender differences of volitional qualities based on the essence of the content. Recommendations for the development of power are also cited.

Key words: activity, gender, responsibility, initiative, tolerance, perseverance, independence, diligence, zeal, elegance, steadfastness.

Аннотация: В данной статье представлены результаты психодиагностического исследования, направленного на выявление гендерных различий в проявлении волевой активности. В ходе исследования была проведена эмпирическая оценка взаимосвязи волевых качеств с индивидуально-личностными и гендерными особенностями личности. Кроме того, были разработаны практические рекомендации по развитию волевых качеств, и обосновано их психологическое значение.

Ключевые слова: активность, пол, ответственность, инициатива, настойчивость, упорство, независимость, усердие, усердие, сообразительность, настойчивость.

KIRISH

Jahon miqyosida shaxsdagi irodaviy faollikni rivojlantirish masalasi shaxs kamolotini ta'minlovchi muhim psixologik omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shaxsning o'z maqsadlariga erishishida, tanlagan faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishida, duch kelgan to'siqlarga qaramay vazifani qat'iyat bilan bajarishida, g'ayrat-shijoat, qat'iylik va tashabbuskorlikni namoyon etishida irodaning yetakchi o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, inson faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning irodaviy sifatlari rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Shu bois, bugungi kunda yoshlarni irodali, mas'uliyatli, tirishqoq va dovyurak shaxslar sifatida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon miqyosida insonning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, biror faoliyatga qat'iyat bilan kirishishi, duch kelgan qiyinchilik va to'siqlarga qaramay vazifani bajarishda shijoat, tirishqoqlik va tashabbuskorlikni namoyon etishi muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy garovi sifatida e'tirof etiladi. Psixologiya sohasida iroda tushunchasi inson jamiyatining ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-psixologik rivojlanish bosqichlarida turlicha darajada o'rganilgan. Har bir taraqqiyot davrida shaxs kamoloti alohida e'tibor bilan ko'rilgan, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida irodaviy sifatlar va ularning turmushdagi roli aniq ta'kidlangan. Jamiyat farovonligini ta'minlovchi kuch sifatida shaxsning yuqori baholanishi va e'tirofi unga nisbatan doimiy e'tiborni ta'minlab kelmoqda. Shu sababli, iroda masalasi falsafa va psixologiya fanlarida tadqiqot predmeti sifatida mustahkam o'rin egallab, uning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda barkamol avlod shakllanishiga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi tufayli mazkur muammo keng ko'lamda tadqiq qilinishga loyiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Irodaviy faollik muammosi tadqiqotchi va olimlarni o'zining murakkab va to'liq o'rganilmaganligi bilan o'ziga rom etadi. Shu sababli ham so'nggi yillarda bu mavzuga qiziqishning oshishi xorij psixologiyasidagi va mintaqamizdagi ilmiy tadqiqotlarning ortishi bilan asoslash mumkin.

Tadqiqotchi olim Y.Kul irodaviy boshqaruvni shaxsiy intilishlarini amalga oshirishda mavjud qiyinchiliklar bilan bog'laydi. Rus olimi I.P.Pavlov irodani «erkinlik instinkti», tirik organizmning bu faoliyatni cheklovchi to'siqlarga duch kelgandagi ongli faoliyatining namoyon bo'lishi deb hisoblagan. V.Shtern irodaning o'ziga xos xususiyatlarini quydagicha tariflaydi, u haqiqiy harakat bilan emas, balki kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakat bilan bog'liq va iroda insonni oldinga intilishga chorlovchi istiqbolli harakatidir. Shuningdek Venalik mashhur olim V.E.Frankl irodani hayotiy vazifalarning eng asosiysi ekanligini takidlaydi. [1] Fransuz faylasufi A.Bergson tomonidan tavsiya etilgan volyuntaristik an'anaga binoan, iroda-idrokdan oldin turadigan voqelikning fundamental xossasi bo'lib, jamiki tushuntirish modellarining asosi hisoblanadi. [2] V.I.Selivanov boshqaruv mohiyatini "shaxs tomonidan ko'zlangan xatti-harakat va xulq-atvorni amalga oshirishda uchraydigan qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishda uning psixik va jismoniy imkoniyatlari mobilizatsiyasi" deb tushunadi. [3] P.V.Simonov irodani erkinlik refleksi oldidagi to'siqni yengib o'tishga bo'lgan reaksiya sifatida talqin etadi. [4].

Gruzin akademigi D.N.Uznadze ta'limotida irodaning shakllanishini shaxsning mehnat jarayoni bilan bog'laydi, qachonki iroda faol ehtiyojsiz ham ro'yobga chiqadi va subyektning ehtiyojlariga bog'liq bo'lmagan qadriyatlarni yaratishga yo'naladi. D.N.Uznadze iroda muammosining ildizini shunda ko'radiki, bunda iroda faoliyat yoki xulq-atvorning manbasi ilg'or ehtiyojlarning impulsi emas, aksincha butunlay boshqa narsa tarzida ko'rinishga ega bo'lib, hatto unga qarama-qarshi xususiyat kasb etadi. [5]

Darhaqiqat, biz tomonimizdan tadqiqot doirasida o'rganilgan yondashuvlardan ko'rinib turibdiki, psixologiyaning barcha sohalar bo'yicha o'xshashlik mavjud. Shu sababli, ushbu yondashuvning dolzarb masalalari irodaviy jabhalardan tanlov muammosini ajratib olish va ularni eksperimental tahlili uchun oqilona, to'g'ri psixodiagnostik metodlarni tanlab olish va qulay yangi metodikalarni ishlab chiqish, ayrimlarini moslashtirish bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Zamonaviy psixologiyada irodaviy faollikni shaxslilik va gender tafovutlarini o'rganishga oid qator ilmiy tajribalar amalga oshirilgan. Psixologik manbalarga nazar solsak, shaxs faolligining turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular funksional jihatdan bir-biridan tafovutlanadi, lekin iroda inson faolligini alohida, o'ziga xos shaklidan iboratligi bilan ajralib turadi. [4]

Bizning mavzumizga dahldor tadqiqotlardan biri N.D.Skryabin tomonidan amalga oshirilgan. [6] U o'z tadqiqotlarida ikki jins sinaluvchilarning jasurlik sifatlarini davriy o'zgarishlarini asoslab berishga harakat qilgan.

Irodaviy faollikning individual xususiyatlari mavjud bo'lib, u shaxs faoliyatini ma'lum bir maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Shaxs faoliyatida iroda ichki qiyinchiliklarini yengishga yonaltirilgan ongli tuzilmadan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish sifatida namoyon bo'lib, o'z ichki kechinmalarini hamda faolligini tartibga solishga xizmat qiluvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlarini, sifatlarini, hislatlarini, illatlarini to'g'risida mulohaza yuritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqsad: Oliy ta'lim muassasalari talabalari irodaviy faolligining vaziyatli va shaxslilik jihatlarini o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda jinsiy farqlarni aniqlash, shuningdek, irodaviy sifatlarini rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.



Irodaning shaxsda namoyon bo'lish muammosi psixologiya sohasida keng miqyosda tadqiq etilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar turli nazariy yo'nalishlar, tamoyillar va yondashuvlar asosida olib borilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu yondashuvlar hozirgi davrgacha o'z ilmiy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Darhaqiqat, inson faoliyatining barcha sohalarida iroda yetakchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini chuqur hamda aniq tadqiq etish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini aniqlash maqsadida rus psixologi M.V. Chumakov tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxsning irodaviy sifatleri" so'rovnomasidan foydalanildi. Tadqiqot natijalarining miqdoriy ko'rsatkichlarini qayta ishlash, ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini aniqlash, o'rtacha arifmetik qiymatlarni hisoblash, shuningdek, sinaluvchilarning hududiy va jinsiy tafovutlarini tahlil qilish jarayonida matematik-statistik metodlar, jumladan Mann-Whitney mezoni qo'llanildi. Ushbu metodlardan foydalanish natijasida irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini har tomonlama va chuqur diagnostika qilish imkoniyati yaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizni navbatdagi bosqichida M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy sifatleri» metodikasidan olingan natijalarni jins xususiyatlarini aniqlash maqsadida (Mann-Uitni U mezoni asosida) tahliliy tafovutlarini aniqladik. Tadqiqot natijalariga asosan ikki jins vakillarida irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishida sezilarli farqlar kuzatildi. Quyidagi jadvalda «Shaxsning irodaviy sifatleri» metodikasidan olingan miqdoriy ko'rsatkichlardan ma'lumki sinaluvchilarning umumiy kontingenti misolida ikki jins vakillari natijalari qiyoslandi (1-jadvalga qarang).

Natijalariga ko'ra, metodikaning birinchi — mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha yigitlarning natijalari qizlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekani aniqlandi ($U = 3,739$; $p < 0,000^{***}$). Bu holat yigitlar orasida mas'uliyat hissi nisbatan kuchliroq shakllanganligini ko'rsatadi. Ushbu farq jinsga xos ijtimoiy rol kutilmalari, tarbiya jarayoni va jamiyatdagi an'anaviy gender stereotiplari ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Xususan, yigitlardan ko'proq mustaqillik, qaror qabul qilish va mas'uliyatni zimmasiga olish kabi xususiyatlar kutilgani, ularning mas'uliyatlilik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Tashabbuskorlik shkalasi bo'yicha yigitlarning rang ko'rsatkichi $-2,688$ ni tashkil etib, bu farq $p < 0,01^{**}$ darajasida statistik jihatdan ishonchli deb topildi. Ushbu natijalar yigitlar orasida tashabbuskorlik sifati qizlarga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu holat yigitlarga nisbatan qo'yilgan ijtimoiy va madaniy tahminlar ularning mustaqil qaror qabul qilishi, faol bo'lishi va tashabbus ko'rsatishiga doir rollar bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek asosiy sabab qilib o'zbek oilalarida shakllangan yigitlarning oila boshqaruvida yetakchilikni qo'lga olishi va ayollarimizning oila boshiga bo'ysinishini ko'rsatishimiz mumkin. So'rovnoma talabiga binoan bunday shaxslar yaratuvchanlik qobiliyati yuqori, hayotda biror narsani o'zgartirishga intilib yashaydilar. Bu kishilar o'zlarini o'zgaruvchan vaziyatda yaxshi his qiladilar va islohotlar o'tkazishga tayyordirlar. Ularda yuqori ijodkorlik qobiliyati mavjud bo'lib intellektual salohiyat bilan samarador faoliyat olib borishlari mumkin.

Qat'iyatlilik shkalasida ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatilmadi. ($U = -0,997$, $p < 0,319$). Bu esa qat'iyatlilik sifati jinsga bog'liq holda o'zgaruvchi omil emasligini, yigitlar ham, qizlar ham ushbu sifatga o'xshash darajada ega ekanliklarini bildiradi. Mazkur holat qat'iyatlilikning shakllanishida shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy tajriba va individual tarbiya kabi omillar ko'proq rol o'ynashini anglatadi, jins esa bu borada hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmaydi.

1-jadval. M.V.Chumakovning "Shaxsning irodaviy sifatleri" metodikasi bo'yicha jins tafovutlari (Mann-Uitni U mezoni asosida) (N=317)

Shkalalar	Sinaluvchilarning jinsi	N	Mean Rank	Mani-Uitni mezoni	p ishonch darajasi
Mas'uliyatlilik	Yigitlar	148	173,34	-3,739	0,000***
	Qizlar	169	146,44		
Tashabbuskorlik	Yigitlar	148	173,64	-2,688	0,01**
	Qizlar	169	146,36		
Qat'iyatlilik	Yigitlar	148	164,36	-0,997	0,319
	Qizlar	169	154,31		
Mustaqillik	Yigitlar	148	166,89	-1,457	0,145
	Qizlar	169	152,09		
Matonat	Yigitlar	148	172,45	-2,475	0,05*
	Qizlar	169	147,22		

Tirishqoqlik	Yigitlar	148	169,72	-2,001	0,05*
	Qizlar	169	149,61		
Gayratlilik	Yigitlar	148	174,07	-2,781	0,01**
	Qizlar	169	145,80		
Ziyraklik	Yigitlar	148	171,56	-2,328	0,05*
	Qizlar	169	148,00		
Sobitqadamlilik	Yigitlar	148	164,93	-1,115	0,297
	Qizlar	169	153,81		

Izoh: $p < 0,05^*$, $p \leq 0,01^{**}$, $p \leq 0,001^{***}$

Mustaqillik shkalasi bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida sezilarli statistik farq aniqlanmadi ($U = -1,457$; $p < 0,145$). Bu esa mustaqillik sifati jinsiy omillarga bog'liq bo'lmagan holatda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu sifat mustaqil qaror qabul qilishga intiladigan, ko'p hollarda o'zgalarning psixologik qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lmagan, va agar o'zining nuqtai nazari guruh fikriga zid bo'lsa ham, unga qarshi chiqishga jur'at topa oladigan shaxslarda ko'proq namoyon bo'ladi. Demak, mustaqillik darajasi ko'proq individual shaxsiy xususiyatlar va hayotiy tajriba bilan bog'liq bo'lib, jinsiy farqlarga bevosita taalluqli emas.

Matonat shkalasi bo'yicha yigitlar qizlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatgan ($U = -2,475$; $p < 0,05^*$). Ushbu farq statistik jihatdan ishonchli bo'lib, yigitlarda matonat — ya'ni qiyinchiliklarga bardosh berish, bosim ostida ruhiy barqarorlikni saqlab qolish va ruhiy zarbalarga nisbatan chidamli bo'lish — sifati kuchliroq namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Bunday farq erkaklar uchun jamiyatda qo'yiladigan kuchlilik, sabr-bardosh va mustahkamlik kabi an'anaviy gender xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat, shuningdek, yigitlar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va tashqi qiyinchiliklarga dosh berishga moslahgan bo'lishi ehtimolini ham anglatadi.

Tirishqoqlik shkalasi bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlangan ($U = -2,001$; $p < 0,05^*$). Ushbu farq statistik jihatdan ishonchli bo'lib, jinslar o'rtasida tirishqoqlik — ya'ni belgilangan maqsad sari qat'iy harakat qilish, boshlagan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish kabi fazilatlar darajasida tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu tafovut jamiyatda jinslarga nisbatan shakllangan an'anaviy qarashlar, tarbiya jarayonidagi farqlar hamda shaxsiy motivatsiya va ichki rag'batlantirish omillaridagi tafovutlar natijasi sifatida qaralishi mumkin.

G'ayratlilik shkalasi bo'yicha ham ishonch darajada jinsiy farqlar mavjudligi aniqlandi. ($U = -2,781$, $p < 0,01^{**}$). Ushbu natija yigitlar va qizlar faoliyatga bo'lgan ishtiyoq, tashabbus bilan harakat qilish hamda maqsad sari intilish darajasida bir-biridan sezilarli tarzda farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Unga ko'ra tatqiqotda ishtirok etgan yigitlarning natijalarida qizlarga nisbatan faol, tezkor, kuchli, bardoshli, ishchan, sermahsul ekanligi aniqlandi.

Ziyraklik shkalasida ham o'tkazilgan tahlil natijalariga binoan sinaluvchilarning jinslar o'rtasida farqlar kuzatildi. ($U = -2,328$, $p < 0,05^*$). Ushbu shkalada ham yigitlarimiz qizlarga nisbatan e'tiborli ekanliklari ma'lum bo'ldi.

Sobitqadamlilik shkalasi bo'yicha ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatilmadi ($U = -1,115$, $p < 0,297$). Ushbu shaxslar o'z maqsadlari yo'lida tirishqoqlik bilan shiddatli harakatlanishlarida o'xshashlik mavjudligi aniqlandi. Bu natija ikki jins vakillarining maqsad sari intilish va o'zgarmas umumiylikka ega ekanligini anglatadi. Odatda o'z vaqtini va amalga oshiradigan ishlarini tartibini rejalashtirishga harakat qiladigan shaxslarda kuzatiladi. Umuman olganda, irodaviy sifatlar jinsga xos tarbiya jarayonlarining ta'siri bilan shakllansa-da, ular ko'proq individual omillar, masalan, shaxsning ichki motivatsiyasi, uning jamiyatdagi o'rni va hayotiy tajribasi bilan bog'liqdir. Bu natijalar, shaxsni rivojlantirishda, ayniqsa, jinsiy tenglikni ta'minlash va jinsga xos stereotiplarni kamaytirish uchun yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishda ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxsda irodaning namoyon bo'lishi haqidagi turli yondashuvlarga ko'ra, iroda mustaqil psixik tuzilma sifatida, ayrim hollarda esa nopsixologik tabiatga ega ichki kuch, motivatsion yoki emotsional voqelik, hattoki miya faoliyatining funksional holati sifatida talqin etiladi.

Irodaviy sifatlarni baholash, ularda aqliy va ixtiyoriy boshqaruv jarayonlarining shakllanishi, o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmlarining rivojlanishi, shuningdek irodaviy faollik va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil etish masalalari zamonaviy psixologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jo'rayev O'.T. Xorij psixologiyasida iroda muammosining tadqiqi. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali 75-77 betlar. 2021. [1/6] ISSN 2181-7324
2. Turdimurodov D.Yu. Possibilities of physical education means in the formation of volitional qualities in schoolchildren. Journal of innovations in pedagogy and psychology. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp.74-80
3. Ғозиев Э.Ғ Умумий психология Тошкент 2010 йил. 223-226-бетлар.
4. Сатторова Г.И. Илк ўспирин ёшида иродавий сифатларни ўрганишнинг психодиагностик имкониятлари. Монография. Қарши. Насаф нашриёти. 2014 йил.
5. Г.А.Гурджян Становление волевых характеристик будущих специалистов в сфере безопасности жизнедеятельности на раннем этапе профессионализации. Текст научной статьи по специальности «Психологические науки» 2011.
6. Salixov M.SH, Salimova L.N. Hissiy irodaviy boshqaruv namoyon bo'lishining yosh va jins xususiyatlariga bog'liq o'zgarishi. «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4 915-920.
7. R.R.Ashurov Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari. «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5
8. Жураев, У. Т. (2020). Практический анализ функционирования ситуационных и личностных детерминант волевой деятельности. Проблемы современной науки и образования, (1 (146)), 108-110.
9. Жураев, У. Т. (2020). Психологические детерминанты формирования навыка личности. Вестник науки и образования, (7-2 (85)), 98-100.
10. Жураев, У. Т. (2018). Modern psychological character of terrorism. Научные горизонты, (3), 31-35.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.